

INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY QILISH – DAVR TALABI

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

PhD. Navoiy davlat universiteti

E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi

Navoiy. E-mail: ismatovashodiya429@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inklyuziv ta'lim - imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya olishlarida yaratilgan imkoniyat ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziya, inklyuziv ta'lim, intellektual, diskriminatsiya, sensor, konvensiya, maktab-internat, konsepsiya, imkoniyati cheklangan bola, katalizator, teng huquqlilik, teng imkoniyatlilik.

Аннотация: Утверждается, что инклюзивное образование – это созданная для детей с ограниченными возможностями возможность получать образование вместе со своими здоровыми сверстниками.

Ключевые слова: Инклюзия, инклюзивное образование, интеллектуальный, дискриминация, сенсор, конвенция, школа-интернат, концепция, ребенок с ограниченными возможностями, катализатор, равные права, равные возможности.

Abstract: It is stated that inclusive education is an opportunity created for children with disabilities to receive education together with their healthy peers.

Key words: Inclusion, inclusive education, intellectual, discrimination, sensor, convention, boarding school, concept, disabled child, catalyst, equality, equal opportunity.

Bilamizki, har qanday jamiyatning asosini insonlar tashkil etadi. Har qanday davlatning va islohotlarning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va komil inson qilib tarbiyalashdir. Bugungi kunda ta'lim sohasiga ham ko'pgina o'zgartirishlar kiritildi. Jamiyatning ma'lum bir qatlamini nogironligi bor bolalar tashkil etganligi sababli ta'lim sohasiga "inklyuziv" tushunchasi kirib keldi.

Inklyuziv ta'lim siyosati turli xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishini qo'llab, yaxshi hayot ko'rinishiga imkon yaratishdir. Barcha bolalar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim tashkilotlarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Inkluziv ta'lim bu, shunday ta'lim-tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktabgacha ta'lim

tashkilotlari, maktablarda o‘z tengqurlari bilan birga ta’lim olish demakdir.

Inkluziv ta’lim alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar bilan sog‘lom bolalar orasidagi teng ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. O‘zbekiston Nogironlar assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash qo‘mitasi ekspertlar kengashi a‘zosi Oybek Isoqov qonun loyihasida inklyuziv ta’limga ta’rif berishdan boshlash kerakligini ta’kidlaydi. U quyidagi ta’rifni qonunga kiritishni taklif qiladi:

“Inklyuziv ta’lim– barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir”.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririga ko‘ra, qonunga har bir bolaning ta’lim olishdagi teng huquqliligini ta’minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan “inklyuziv ta’lim” tushunchasi kiritildi.

Biroq, qonunning 20-moddasi “Inklyuziv ta’im” bu ta’rifni o‘z ichiga olmaydi. Unda faqatgina “inklyuziv ta’lim barcha bolalarga, shu jumladan ta’lim olish chog‘ida o‘ziga nisbatan har qanday tarzda kamsitishni istisno etuvchi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarga nisbatan teng huquqli munosabatda bo‘lish” haqida so‘z boradi. Mazkur modda nogironligi bo‘lgan bolalarning barcha, ya’ni aqliy va sensor (eshitish va ko‘rish) nuqsonlari bo‘lgan bolalar toifalarini qamrab olmagan. Moddada ishlatilgan tushuncha “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda keltirilgan “nogiron bolalar” tushunchasiga mos kelishi lozim.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi qaror va qonunlarda mavjud bo‘lsada, hozirgi kunda mavjud ta’lim shakllaridan birigina xolos. Imkoniyati cheklangan bolalar faqatgina uyda tahsil olishlari emas, tengdoshlari singari ta’lim muassasalarida tahsil olishlari lozim. Jamiyatdagi insonlar ham bu holatga ijobiy munosabatda bo‘lishlari va kamsitishlarga chek qo‘yishlari talab etiladi.

O‘zbekistondagi inklyuziv ta’lim tadqiqotchisi, yangi Zelandiyadagi Vaykato universiteti doktoranti Galina Namning ta’kidlashicha, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, balki umumiy ta’lim muassasalarida ta’lim olishlari ustuvor bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda jamiyatning muhim vazifalaridan biri – imkoniyati cheklangan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta’limni joriy etish orqali sifatli ta’lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi sog‘lom bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta’lim-tarbiya olishlarini ta’minlaydi.

Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o‘zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos qilib oladi. “Bola huquqlari to‘g‘risidagi

Konvensiya”da barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta’lim tizimini yaratish g’oyasi ilgari surildi. Chunki har bir bolada u sog‘lommi yoki imkoniyati cheklanganmi - ularda takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

“Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya”da kelib chiqib, yaxshi maktab ta’limini uch xil ibora bilan ta’riflash mumkin, ya’ni:

- mos keluvchi;
- rivojlantiruvchi;
- inklyuziv;

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: “Tirik qolish va rivojlanish”. Bu modda mos keluvchi ta’limga taalluqli.

Rivojlantiruvchi ta’lim 29-moddada ko’rsatilgan: “Ta’lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o’stirishga yo’naltirilgan bo’lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak”.

2-va 28-moddalar inklyuziv ta’limga tegishli bo’lib, ularda kamsitishning oldini olish, ta’lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo’yilgan.

Inklyuziv ta’lim - ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo’lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta’lim muassasalariga qabul qilinishi o’quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko’proq o’quvchilarni qamraydigan yangi o’qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta’lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi.

Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yangilish fikr va munosabat juda yuqoridir. Ular haqida ma’lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta’lim tarbiya berilishi bunga sabab bo’lishi mumkin. Bunday munosabatni yo’qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma’lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o’xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta’lim-tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o’zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklari ta’minlagan bo’lar edi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar mazmunidan xulosa qilish mumkinki, bolalarning qobiliyatlari va har qanday holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak. Barchamizga malumki, maxsus ta’lim aqliy yoki jismoniy holatiga va tashqi ko’rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta’lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko’ra belgilanadi hamda inklyuziv ta’lim bolaga yo’naltirilgan va moslashtirilgan, yoriqnomali, barchaga mo’ljallangan o’quv dasturi asosida o’qitilishi kerak ekanligi belgilangan. Bunday ta’limning oziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o’qituvchilar bir-birlaridan o’rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal qilishadi. Inklyuziv ta’limda albatta bir tomonlama

harakat bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Shunday ekan jamiyatdagi barcha bolalar birlashgan holda imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularga g'amxo'rlik qilish va ko'maklashish kabi sifatlarda tarbiyalanishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi 13.10.2020-yildagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
3. X.N.Muzaffarova, D.Tangirova "Inklyuziv ta'lim" fani bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. /Jizzax davlat pedagogika instituti. 2011 y.
4. Белтоков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи (в норми и паталогии)-М: Педагогика.1997.
5. Ashirova S.B. "Maktabgacha inklyuziv ta'lim" – O'quv qo'llanma. 2024-yil.
6. Хайдарова Шахло Нарзуллаевна. Меҳрибонлик уйи тарбияланувчиларини оилавий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. VOLUME #1, ISSUE #1, 2020/XI. 149-154.
7. Хайдарова Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.
8. Хайдарова Ш.Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ВОСПИТАННИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)
9. <https://www.gazeta.uz> – 06.09.2020.